

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

### GAROV-MAJBURIYATLARNING BAJARILISHINI TA'MINLASH USULI SIFATIDA

*Qadambayeva Ozoda Umid qizi*

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti  
Yurisprudensiya: biznes huquqi yo'nalishi 2-bosqich talabasi*  
[qadamboyevaozoda2@gmail.com](mailto:qadamboyevaozoda2@gmail.com)

+998907371811

*Ilmiy rahbar: Rahimjonov Akmaljon Bahromjon o'g'li*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada garov huquqi tushunchasi, kreditor va qarzdor o'rtasidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlar, ularning huquq va majburiyatlari, garovning vujudga kelish va bekor bo'lish asoslari, garov turlari to'g'risida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** garov, majburiyat, kreditor, qarzdor, ashyo, mol-mulk, ipoteka, zakalat, huquqlar garovi

Kishilik jamiyatida mulkiy munosabatlar shakllangan vaqtlardan boshlab qarzdorlar tomonidan olingan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash chora-tadbirlari ishlab chiqilgan. Jumladan, garov majburiyat bajarilishini ta'minlashning eng ishonchli va samarali usullaridan biridir. Garov uzoq davom etgan rivojlanish tarixiga ega. Bunda garovning mohiyati har doim bir xil bo'lib, u majburiyatlarni ta'minlashga qaratilgan, lekin uni ushlab turish o'zgarib turgan. Garov qarzdor tomonidan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash uchun Qadimgi Bobil, Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rimda qo'llanilgan. Qadimiy Yevropa xalqlari garovdan foydalanilgani tarixiy qo'lyozmalarda o'z tasdig'ini topgan. Masalan, **I.B. Novitskiy** "Garov huquqi Rim fuqarolik huquqidan ham avval ma'lum edi. Umumiy qoidaga ko'ra garov huquqi o'z galar mulkiga nisbatan bo'lgan huquqning o'ziga xos namoyon bo'lishi hisoblanib, uning asosiy vazifasi majburiyatlarning ijrosini ta'minlash hisoblanar edi. Qarzdor ma'lum bir ashyoni majburiyat ijrosini ta'minlovchi vosita sifatida garovga qo'ygan va majburiyat ijro etilmagan taqdirda, qarz beruvchi o'sha ashyoga nisbatan majburiyat bo'yicha o'z talabini qanoatlantirish uchun undirish huquqiga (ashyo qarzdorni mol-mulki sifatida qolganligi yoki undan begonalashganidan qat'iy nazar) yoxud o'sha ashyodan o'z talablarini boshqalarning talablariga nisbatan imtiyozli, ustuvor qanoatlantirish huquqiga garov huquqi deb e'tirof etilgan"<sup>1</sup>, deb qayd etadi.

<sup>1</sup>Novitskiy I.B. Rim huquqi. -M.: Knorus, 2011.-B.112.

Garovning mohiyati shundan iboratki, qarzdor kreditorga o'z majburiyatlarining bajarilishini ta'minlashga mo'ljallangan mol-mulkini beradi. Garovga beriladigan mol-mulk, ham qarzdorga, ham boshqa shaxsga tegishli bo'lishi mumkin. O'z mulkini garovga qo'ygan shaxs garovga qo'yuvchi deb nomlanadi. Talablari garov bilan ta'minlanadigan kreditor garovga oluvchidir. Garov mol-mulkka bo'lgan mulk huquqining kreditorga o'tishini nazarda tutmaydi. Garov kreditorga faqat, qarzdorning boshqa kreditorlariga nisbatan, o'z talablarini garovga qo'yilgan mol-mulk qiymatidan qanoatlantirish imkoniyatini beradi. Qarzdorning o'z majburiyatlarini bajarmasligi holatida garovga qo'yilgan mulk sotiladi va tushgan pul summasidan asosan kreditorning garov bilan ta'minlangan talablari imtiyozli ravishda qanoatlantiriladi.

**I.B.Zokirov** garov tufayli garov bilan ta'minlangan majburiyat bo'yicha kreditor (garovga oluvchi) qarzdor tomonidan bu majburiyat bajarilmagan taqdirda, garovga qo'yilgan mol-mulkning qiymatidan ushbu mol-mulk egasi bo'lgan shaxs (garovga qo'yuvchi)ning boshqa kreditorlariga nisbatan o'z talabini imtiyozli qanoatlantirishga haqli bo'ladi degan fikrni ilgari suradi<sup>2</sup>.

**H.Raxmonqulovning** fikricha, bir shaxsning boshqa shaxsga mol- mulkni yoki unga bo'lgan huquqini majburiyatni ta'minlash uchun berishi garov hisoblanadi. Garovga ko'ra qarzdor garov bilan ta'minlangan majburiyatni bajarmagan taqdirda, kreditor (garovga oluvchi) bu majburiyat bo'yicha garovga qo'yilgan mol-mulkning qiymatidan o'z talabi ushbu mol-mulk egasi bo'lgan shaxs (garovga qo'yuvchi)ning boshqa kreditorlariga qaraganda imtiyozli sur'atda qanoatlantirilishiga (agar qonunda boshqacha tartib belgilab qo'yilgan bo'lmasa) haqli bo'ladi<sup>3</sup>.

FKning 266-moddasida ko'rsatilganidek, garovga qo'yuvchi garovga qo'yilayotgan mulkning egasi bo'lishi lozim. Basharti, qonun yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, mulkdorning roziligisiz ashyoviy huquqni garovga qo'yishga yo'l qo'yiladi.

Garov vujudga kelishining eng oddiy va keng tarqalgan usuli shartnoma tuzilishidir. Mol-mulkning garovi to'g'risidagi kelishuv u bilan ta'minlanadigan asosiy majburiyatlar vujudga keladigan asosiy shartnomada belgilangan bo'lishi ham, shuningdek, biron-bir majburiyat bajarilishini ta'minlash bo'yicha garov to'g'risidagi alohida shartnoma tuzilishi orqali rasmiylashtirilishi ham mumkin.

Garov huquqi garov to'g'risida shartnoma tuzilgan paytdan yoxud, basharti shartnoma notarial tasdiqlanishi shart bo'lsa notarial tasdiqlangan paytdan, shartnoma ro'yxatdan o'tkazilishi shart bo'lganida esa u ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab vujudga keladi. Basharti, garov narsasi qonunga yoki shartnomaga asosan garovga qo'yuvchida bo'lishi lozim bo'lsa, garov huquqi unga garov narsasi berilgan paytdan, basharti bunday topshirish shartnoma tuzilishidan avval amalga

<sup>2</sup>Zokirov I. Fuqarolik huquqi. 1-qism. Toshkent: TDYI, 2006. -305 b

<sup>3</sup>Rahmonqulov H. Majburiyat huquqi. -T.: TDYI, 2005.-B. 89.

oshgan bo'lsa shartnoma tuzilgan paytdan boshlab vujudga keladi.(FK 270-modda) Garov qonunda belgilangan holatlarda garov to'g'risidagi shartnoma tuzilmasdan ham vujudga keladi. Masalan, nasiyaga sotilgan tovar uning haqi to'lab bo'lingunga qadar sotib oluvchi tomonidan tovar haqini to'lash majburiyati bajarilishini ta'minlash uchun sotuvchida garovda turgan deb hisoblanadi (FK 421-moddasining 7-qism). Shuni ta'kidlash lozimki, agar garov qonun asosida vujudga kelsa, unda garov huquqi garovga olib keluvchi vaziyatlar ro'y bergan paytdan boshlab vujudga keladi. Masalan, sotib olinayotgan mol-mulkni ta'minlash asosida, kredit shartnomasi bo'yicha xonadon (kvartira) sotib olinayotgan bo'lsa, garov huquqi sotib olinayotgan xonadonga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatiga olingan paytdan boshlab vujudga keladi.

Garov instituti kreditorga shunisi bilan afzalki, unda qarzdor tomonidan garov narsasi orqali majburiyat bajarilishining haqiqiy kafolati berilgan. **H.Rahmonqulov** islom huquqida garovga alohida e'tibor berilganligini, garov ko'char va ko'chmas mulk, ayrim hollarda faqat narsa emas, balki shaxsan qarzdor va uning oila a'zolaridan iborat bo'lishi mumkinligini ta'kidlab o'tadi.<sup>4</sup>

Garov narsasi har qanday mol-mulk, ashyolar va mulkiy huquqlar (talablar) bo'lishi mumkin, ammo bundan FKning 267-moddasida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida"gi Qonunida nazarda tutilgan ashyolar bundan mustasnodir. Muomaladan chiqarilgan mol-mulk, kreditorning shaxsi bilan uzviy bog'liq bo'lgan talablar, xususan, hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplash haqidagi talablar, alimentlar haqidagi talablar hamda boshqa shaxsga berish qonun bilan man etilgan boshqa talablar garov narsasi bo'la olmaydi.

Muomaladan chiqarilgan ashyolarga narkotik (giyohvand) va psixotrop vositalar kiradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 31-iyuldagi 293-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasida muomalada bo'lishi man etilgan narkotik vositalarning ro'yxati tasdiqlangan. Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari garov narsasi bo'lishi mumkin emas, chunki "Muzeylar to'g'risida"gi Qonun mazkur ashyolarni birovning egaligiga o'tkazilishini taqiqlaydi. ("Muzeylar to'g'risida"gi Qonunning 15-moddasi).

Shuningdek, "Garov to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasiga binoan, garovga qo'yuvchi kelgusida qo'lga kiritadigan ashyolar va mulkiy huquqlar ham garov narsasi bo'lishi mumkinligi keltirilgan. Masalan, agar bank uy qurilishiga kredit bersa, garov huquqi qurilayotgan uyga ham o'tadi. Uy qurilib bo'lgandan keyin, uning davlat ro'yxatiga olingan paytdan boshlab u garovga qo'yilgan deb hisoblanadi.

Garov turlariga keladigan bo'lsak, FKning 265-moddasiga asosan garovning quyidagi turlari mavjud:

<sup>4</sup>Rahmonqulov H. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining birinchi qismiga umumiy tavsif va sharhlar Toshkent: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1997, B. 27

1. zakalat (bunda garov narsasi garovga oluvchida saqlanadi);
2. ipoteka(bunda ko'chmas mol-mulk garovga olinadi);
3. mulkiy huquqlarni garovga olish.

Bunday bo'linish garov narsasining xususiyatlariga hamda garov narsasi kimning egaligida bo'lishiga qarab farqlanadi. Garovga qo'yiladigan mol-mulk garovga qo'yuvchi tomonidan garovga oluvchiga o'tkazilganda, topshirilganda garov zakalat deb hisoblanadi. Odatda, ko'char mol-mulk zakalat narsasi sifatida chiqadi.

Zakalatda garovga oluvchi garov narsasidan qonunda nazarda tutilgan hollarda foydalanishi mumkin. Zakalat garov oluvchiga majburiyatning to'liq bajarilishigacha garov narsasini ushlab turish huquqini beradi.

Ko'chmas mulkni garovga qo'yish ipoteka hisoblanadi. Binolar, inshootlar, ko'p xonadonli uylardagi xonadonlar, korxonalar, boshqa mulkiy majmualar, savdo va xizmat ko'rsatish sohasi obyektlari, shuningdek, turar joylar ular joylashgan yer uchastkalari bilan birga, qonunda ko'chmas mulk jumlasiga kiritilgan boshqa mol-mulk ipoteka narsasi bo'lishi mumkin. "Ipoteka to'grisida"gi qoidalar "Ipoteka to'g'risida"5gi Qonunda yanada batafsil tarzda tartibga solingan.

Garovning keyingi turi huquqlar garovidir. Mulkiy huquq, shu jumladan, egalik va foydalanish huquqi, ijara huquqi va majburiyatlardan kelib chiqadigan boshqa huquqlar ham garov narsasi bo'lishi mumkin.

Garov huquqining bekor bo'lish holatlariga to'xtalsak, bu FK ning 283-moddasida ko'rsatilgan. Unda aytilishicha garov quyidagi hollarda bekor bo'ladi:

- 1) garov bilan ta'minlangan majburiyat bekor bo'lganida;
- 2) ushbu Kodeks 274-moddasining [uchinchi qismida](#) nazarda tutilgan asoslar bo'lganida garovga qo'yuvchining talabi bilan;
- 3) garovga qo'yilgan ashyo nobud bo'lganida yoki garovga qo'yilgan huquq bekor bo'lganida;
- 4) garovga qo'yilgan mol-mulk realizatsiya qilingan taqdirda, shuningdek uni realizatsiya qilish mumkin bo'lmagan taqdirda (ushbu Kodeksning 281-moddasi). Ipoteka to'g'risidagi shartnoma ro'yxatdan o'tkazilgan reyestrda ipoteka tugatilganligi to'g'risida belgi qo'yilgan bo'lishi kerak.
- 5) agar garovga oluvchi ushbu Kodeks 282-moddasi ikkinchi qismining [4-bandida](#) nazarda tutilgan huquqdan foydalanmagan bo'lsa, bundan garovga qo'yilgan mol-mulk realizatsiya qilinmaganligi va talablari garov bilan ta'minlanmagan kreditorlarning o'z talablarini qanoatlantirish uchun mazkur mol-mulkni qabul qilishni rad etganligi hollari mustasno.

Garov bilan ta'minlangan majburiyat bajarilishi natijasida yoki garovga qo'yuvchining talabi bilan garov bekor bo'lganida (ushbu Kodeks 274-moddasining [uchinchi qismi](#)) ixtiyorida garovga qo'yilgan mol-mulk bo'lgan garovga oluvchi uni darhol garovga qo'yuvchiga qaytarib berishi shart.

Xulosa qilib aytganda, garov majburiyatlarni bajarilishini ta'minlashning muhim omili bo'lib hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Novitskiy I.B. Rim huquqi. -M.: Knorus, 2011.-B.112.
2. Zokirov I. Fuqarolik huquqi. 1-qism. Toshkent: TDYI, 2006. -305 b
3. Rahmonqulov H. Majburiyat huquqi. -T.: TDYI, 2005.-B. 89
4. Rahmonqulov H. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining birinchi qismiga umumiy tavsif va sharhlar Toshkent: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1997, B. 27
5. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2006, 40-son, 393-modda
6. R.Dj.Ruziyev, V.R.Topildiyev "Fuqarolik huquqi".[o'quv qo'llanma] Umumiy qism. -T.:Cho'lpon nomidagi nashriyot matbaa uyi, 2011.- 624 b.
7. I.B.Zokirov "Fuqarolik huquqi" Darslik: -T.: TDYI nashriyoti, 2006- yil -354 bet.
8. Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism/Mualliflar jamoasi. Prof. O.Oqyulovning umumiy tahriri ostida. -T.: TDYU nashriyoti, 2016. -312 bet.
9. <https://lex.uz/acts/-111189>
10. <https://lex.uz/docs/-59914>